



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2019 YIL YANVAR- IYUL OYLARI  
UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY  
KO'RSATKICHLAR**

Sanoat mahsuloti hajmi 7230,3 mlrd.so'mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,9 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1219,2 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 108,0 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 23,0 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan 7230,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,9 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,4 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishbing o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 7,2 % tashkil etti.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da**



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 115,4%)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) (indeks - 101,0%)
- Elektr gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash (indeks-103,4 %)
- Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (indeks-91,1 %)




## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 235,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 9,5 % ga, chaqiq tosh 3,6 martaga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 9,8 % ga, tabiiy gaz 2,7 % ga pa'sayishi kuzatildi.

### TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI






## **ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI**

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6394,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,8 % (2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,6 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali 65,7 % (74,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 6,6 % (4,0 %) va quyi texnologiyali 25,9 % (20,2 %) tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 2,9 % ga, bug'doy noni 5,9 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 5,0 % ga va karbonat dinatriya 0,3 % ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.



## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-iyulda  
ishlab chiqarilgan

### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

2019 yil yanvar-iyulda  
ishlab chiqarilgan



611416,7  
mln.so'm




2018-yil yanvar-iyulga  
nisbatan 107,3 % da



860809,1  
mln.so'm



57228,0  
mln.so'm



2018-yil yanvar-iyulga  
nisbatan 110,5 % da



86510,6  
mln.so'm

### ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI


2018 yil yanvar-iyul  
ishlab chiqarilgan




### TEKSTIL MAHSULOTLARI



2019 yil yanvar-iyul  
ishlab chiqarilgan



2018-yil yanvar-iyulgaga  
nisbatan 114,9 % da



### FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



2018-yil yanvar-iyulgaga  
nisbatan 150,5 % da

26979,0  
mln.so'm



**Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<b>2019 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>2018 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Paxta tolasi, t</b>	<b>24916,0</b>	<b>30663,6</b>	<b>81,3</b>
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t</b>	<b>7438,7</b>	<b>8036,9</b>	<b>92,6</b>
<b>Tozalangan guruch, t</b>	<b>2887,4</b>	<b>3184,6</b>	<b>90,7</b>
<b>Yumshoq bug'doy uni, t</b>	<b>45614,3</b>	<b>44344,5</b>	<b>102,9</b>
<b>Bug'doy noni, t</b>	<b>1540,3</b>	<b>1454,2</b>	<b>105,9</b>
<b>Makaron mahsuloti, t</b>	<b>707,1</b>	<b>1752,8</b>	<b>40,3</b>
<b>Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t</b>	<b>25921,2</b>	<b>24690,0</b>	<b>105,0</b>
<b>Aroq, ming.l. 100% spirt</b>	<b>2219,6</b>	<b>2241,0</b>	<b>99,0</b>
<b>Karbonat dinatriya, ming.t.</b>	<b>110,0</b>	<b>109,7</b>	<b>100,3</b>
<b>Polietilen, t.</b>	<b>216780,2</b>	<b>227649,3</b>	<b>95,2</b>
<b>Polipropilen, t.</b>	<b>56650,0</b>	<b>59489,6</b>	<b>95,2</b>

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 522,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,2 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,3 % ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 0,4 % ga oshganligi kuzatildi.



## SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 10,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 3,8 % ga pasayganligini va suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 18,2 % ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 3,3 martaga oshganligi kuzatildi.

## ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1219,2 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,0 % ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






## **ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH**

2019-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 638,3 mlrd.so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 52,4 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 498,0 mlrd.so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 40,8 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 82,9 mlrd.so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 6,8 % tashkil etdi.


### **2019 YILNING YANVAR-IYUL OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA**

Respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Nukus sh. (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 33,5 % ulushini) Xo'jayli (10,3%), To'rtko'l (8,2%), Beruniy (7,8%), Amudaryo (6,8%). Shu bilan birga eng kam ulush Mo'ynoq (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %), Taxtako'pir (1,1%) va Qonliko'l (1,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.





**2019 YILNING JANVAR-IYUL OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL  
TOVARLARNI O'SISH SURATI, % DA**



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Nukus sh. (112,3 %), Beruniy tumani (112,0 %), Shumanay tumani (110,7 %) tashkil etadi.

Shu bilan birga eng kam ulushi Xo'jayli tumani (100,0), Qarao'zak tumani (100,1%) va Qonlikol' tumani (100,2%) tumanlari xissasiga tug'ri keladi.



### **HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI**

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik gayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush NUKUS sh (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 66,7 % ulushini), Taxiatush tumani (7,0 %), Xo'jayli tumani (3,4 %), Amudaryo tumani (3,0 %) va Mo'ynoq tumani (2,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir ( 0,3 %), Shumanay ( 0,4 %), Nukus ( 0,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

### **2019 YILNING YANVAR-IYUL OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA**





## SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI


Hisobat davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1661,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,0 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qorao'zak (99,99 %), Taxtako'pir (99,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (9,1 %), Mo'ynoq (11,8 %), Taxiatsosh (15,8 %) tumanlarida kuzatildi.

### HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA






## Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 2211 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 528 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 53,4 % Nukus shahri, Beruniy, Amudaryo, Ellikqal'a va To'rko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

### 2019 yil 1 avgust holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Q.R Statistika boshqarmasi  
sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (61) 222-75-87